

CENTRAL ASIA


2025

15-17 may
Farg'ona

XVIII XALQARO KONFERENSIYA
FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA BIZNESDA INTERNET
VA AXBOROT-KUTUBXONA RESURSLARI

XVIII INTERNATIONAL CONFERENCE
INFORMATION-LIBRARY RESOURCES IN SCIENCE,
EDUCATION, CULTURE AND BUSINESS

Konferensiya materiallari
Conference materials



XVIII Xalqaro konferensiya
XVIII International conference

**FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA BIZNESDA
INTERNET VA AXBOROT-KUTUBXONA
RESURSLARI**

**INFORMATION-LIBRARY RESOURCES
IN SCIENCE, EDUCATION,
CULTURE AND BUSINESS**

Central Asia – 2025
15 – 17-May

Konferensiya materiallari
Conference materials

**Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti
Toshkent – 2025**

UO'K: 004.78:025.4.036 (100)

KBK: 78.30(0)

F 24

«Fan, ta'lim, madaniyat va biznesda Internet va axborot-kutubxona resurslari», Xalqaro konferensiya materiallari «Central Asia – 2025, Farg'ona»).

«Fan, ta'lim, madaniyat va biznesda internet va axborot-kutubxona resurslari», xalqaro konferensiya materiallari «Central Asia – 2025», Farg'ona, 15–17- may, 2025 [Matn] = Internet, information and library resources in science, education, culture and business / tuzuvchi S. Komilova A. Qilichboyev; muharrirlar: U. Teshabayeva, F. Ro'ziyeva, – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2025. – 256 b.

TASHKILIY QO'MITA:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Madaniyat vazirligi

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

Sog'liqni saqlash vazirligi

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi

«O'zarxiv» agentligi

Fanlar Akademiyasi

AXBOROT KO'MAGI:

INFOLIB – axborot-kutubxona jurnali

KutubxonaUZ jurnali

Veb-sayt: www.natlib.uz

ISBN 978-9943-06-681-6

© Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi
nashriyoti, 2025 y.

<i>Mannonov Yusup Otaxonovich</i> , Yangi O'zbekistonda axborot-kutubxona xizmatini tashkil qilish	135
<i>Matmuradova Malika Isayevna</i> , Farg'ona haqidagi ma'lumotnoma nashrlar	138
<i>Mavlyanov Komiljon G'iyosovich</i> , Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston SSRda kutubxonachilik ishi tarixi	141
<i>Nodira Mavlonova</i> , Axborot-kutubxona markazlari fondini to'ldirish muammolari va istiqbollari	144
<i>Maxmudov Mirali Xaydarovich</i> , Xalq kutubxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash: xorijiy mamlakatlardagi xalq kutubxonalari tajribalari	146
<i>Marg'uba Meliyevna Yuldasheva</i> , Oliy ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlarida fondning o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganligini avtomatlashtirilgan kutubxona tizimi orqali izlash (TDSHU ARM misolida).....	150
<i>Mirzayev Nasriddin Muxritdinovich</i> , Tarixiy arxiv hujjatlarining yozuv turi, ularning tillari hamda paleografik xususiyatlari	151
<i>Муллажонов Наргиза</i> , Книга – фундамент духовности человека	154
<i>Людмила Муминходжаева</i> , Наставничество как ключевой элемент в подготовке библиотечных кадров	157
<i>Murzayeva Maxmuda Nuriddinovna</i> , Inson kapitalini rivojlantirishda kutubxonalarning o'rni.....	160
<i>Nabiyeva Durdona Qaxramon qizi</i> , Arxivlarda elektronlashtiriz va internet axborot tizimining rivojlanishi. O'zbekiston ilmiy texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi misolida.....	163
<i>Najimova Dilnavoz Doniyor qizi</i> , Bolalar kitoblarini kataloglashtirish: tizimli yondashuv va zamonaviy kutubxonachilik amaliyoti	165
<i>Nizamova Nargiza Burxanovna</i> , Maktabgacha yoshdagi bolalarning axborot olish madaniyatini shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining roli.....	169
<i>Normatov Sherbek Baxtiyorovich</i> , Jo'rayeva Dildora Abdullayevna, Sun'iy intellektning kutubxonachi kasbiga ta'siri: imkoniyatlar va muammolar.....	171
<i>O'ktam Nosirov</i> , Axborot-kutubxona muassasalarida innovatsion muhitni yaratish.....	173
<i>Nurimova Qunduzay</i> , O'zbekiston bibliografiyasining rivojiga hissa qo'shgan bibliograf ayollar.....	177
<i>Qurbonov Po'latjon Nurillaevich</i> , Davlat arxiv axborot tizimlarida sun'iy intellektni qo'llash: muammo va yechimlar.....	181
<i>Ивета Кирилова Рашиева</i> , Журналы, изданные библиотеками - ретроградация и будущее	184
<i>Rasulova Go'zal Baxtiyorovna</i> , Kutubxona va arxiv xizmatlarida sun'iy intellekt: innovatsion yechimlar va yangi davr boshlanishi.....	186
<i>Ravshanov Samiddin Ozod o'g'li</i> , Kitobxonlarga xizmat ko'rsatishda EKBТ ning afzalliklari	188
<i>Ravshanova Marhabo</i> , Kitobxon onalar – sog'lom va ma'rifatli jamiyat poydevori	189
<i>Ravshanova Surayyo Zokir qizi</i> , Kitob nashr qilish, zamonaviy nashriyotlarning turlari, salbiy va ijobiy tomonlari. "Katta beshlik" tushunchasi.....	191
<i>Искандер Рахматуллаев</i> , Библиометрика. Современные библиометрические проблемы в Узбекистане и решения для оценки деятельности публичных и академических библиотек.	194

Bundan tashqari ARMda kam nusxadagi kitoblarni, avtoreferatlarni skanerlash asosida rezerv nusxalarni tayyorlash va ularni kompyuter o'quv zallarida joylash katta samara bermoqda. Bunda kutubxonaga kelgan kitobxonlar abonementdagi bosma asarning qo'lda ekanligini, ammo elektron nusxasi borligini bilgach, universitet lokal tarmog'i orqali u o'zining shaxsiy ID nomeri orqali elektron katalogning elektron bazasiga kiradilar. Universitet professor-o'qituvchilari, tadqiqotchi va talabalari institut lokal tarmog'i orqali ARMning IRBIS katalogiga bevosita ulanib, o'zlariga kerakli adabiyotga buyurtma berishlari va bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida o'qitiladigan 500 ortiq fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlarning elektron shaklini ya'ni to'liq matnli shaklini yuklab olish imkoniga ega bo'ladilar buning uchun fanning nomi yozilsa shu fanga oid adabiyotlarning ro'yxati va to'liq matnini ko'rish va yuklab olish imkoniga ega bo'ladilar. Chunki Axborot resurs markazida zamonaviy skannerlar mavjud. Institut veb-saytida "Elektron kutubxona" tarmog'i mavjud. Bu saytga <https://tsuos.uz/axborot-resurs-markazi/> nomi bilan kirish mumkin. Bu bo'limdan foydalanuvchilar ARM fondida mavjud yangi elektron o'quv-adabiyotlar bilan ham tanishish imkoniyatiga ega. Doktorant va magistratlar xalqaro ilmiy bazalardan foydalanishadi. Scopus, Web of science, EBSCO kabi xalqaro ilmiy resurslar bazalaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida ARM bazasida innovatsiya markazi tomonidan seminarlar tashkil etilgan.

Yangi texnologiyalar asosida kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, yangicha ish yuritishning samaralarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- 3 ta asosiy kutubxona muammosining hal bo'lishida: nashrning kam nusxasi, fondni saqlashda joyning yetishmasligi, kitob fondining saqlanishi;
- kutubxona iste'molchilari so'rovlarining tularoq qondirilishi;
- an'anaviy bo'lmagan tashuvchilarda axborot berish orqali kutubxona ishining qimmatini ortadi, kutubxonaning yangi imidjini yaratiladi;

Multimedia kompyuterlarida SD – ROMga yozilgan matnli, audio va video axborotlar kerakli materialni yaxshiroq o'zlashtirilishiga, ya'ni bir vaqtning o'zida kishining bir necha sezgi organlariga ta'sir etishi orqali axborotning kompleks xolda qabul qilinishiga erishiladi. Bu esa juda katta ahamiyatga ega, chunki yuqori axborot madaniyatiga ega bo'lgan kishi doimo o'zgarib boruvchi dunyoga osonroq moslashadi va bu o'zgarishlardan qurqmaydi.

Mediateka faqat axborot emas, balki madaniy – ma'rifiy va ta'lim berish funksiyasini ham bajaradi, jumladan, kompyuter savodxonligini o'stirishga yordam beradi, estetik tarbiya berish vazifasini ham bajaradi.

Yuqorida aytib o'tilgan tadbirlarning kutubxonalarda bajarilishi iste'molchilar auditoriyasining o'zgarishiga hamda xizmat ko'rsatish sistemasining yaxshilanishiga olib keladi. O'quv zallarida raqamlangan hujjatlarni ko'rish, boshqa kutubxonalar fondiga kirish imkonini beradi.

Kutubxonalararo aloqa orkali hujjatning asl nusxasi emas, balki kaytarish zarur bo'lmagan nusxalarni jo'natish ishlari rivojlanadi.

Kelajak kutubxona – axborot xizmati tizimi uzokdagi iste'molchilarga kutubxonaning axborot resurslariga maksimal kirish imkonini berishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 iyundagi «O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmatlarini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi PQ-4354-sonli Qarori.
2. Rahmatullayev M.A., Umarov A.O., Karimov U.F. Muxamadiyev A.M. Avtomatlashtirilgan kutubxona. 2003 yil
3. U.F. Karimov, M.A. Raxmatullayev. Elektron kutubxona (yaratish texnologiyasi va resurslardan foydalanish) Toshkent 2010 yil
4. Axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari ishini tashkil qilish. Toshkent 2007 yil

TARIXIY ARXIV HUJJATLARINING YOZUV TURI, ULARNING TILLARI HAMDA PALEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

DOI 10.82111/CAC2025/027

Mirzayev Nasriddin Muxritdinovich, O'zbekiston Milliy arxivi katta ilmiy xodimi, t.f.f.d. (PhD)

Maqolada tarixiy arxiv hujjatlarining yozuv turi, ularning tillari hamda paleografik xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. Xususan, O'zbekiston Milliy arxivida mingga yaqin tarixiy fondlarning hujjatlari yozilgan xat turlari, hujjatlar yuritilgan tili haqida ma'lumotlar tahlil qilingan. Tarixiy arxiv hujjatlarining turlixilligiga mil bo'lgan sabab va hodisalarning ahamiyati va o'rnining hujjatshunoslikdagi mavqei bevosita diqqat markaziga olingan. Shuningdek, tarixiy arxiv hujjatlarining tadqiqor metodologiyasi xususida ham ilmiy nazariy masalalarga to'xtab o'tilgan.

Kalit so'zlar: arxiv hujjati, arxivshunoslik, chet tillari, yozuv turi, paleografiya, manbashunos va matnshunoslik.

THE SCRIPT TYPES, LANGUAGES, AND PALEOGRAPHIC CHARACTERISTICS OF HISTORICAL ARCHIVAL DOCUMENTS

Mirzaev Nasriddin Mukhriddinovich, Senior researcher at the National Archive of Uzbekistan Ph.D.

Bundan tashqari ARMda kam nusxadagi kitoblarni, avtoreferatlarni skanerlash asosida rezerv nusxalarni tayyorlash va ularni kompyuter o'quv zallarida joylash katta samara bermoqda. Bunda kutubxonaga kelgan kitobxonlar abonementdagi bosma asarning qo'lda ekanligini, ammo elektron nusxasi borligini bilgach, universitet lokal tarmog'i orqali u o'zining shaxsiy ID nomeri orqali elektron katalogning elektron bazasiga kiradilar. Universitet professor-o'qituvchilari, tadqiqotchi va talabalari institut lokal tarmog'i orqali ARMning IRBIS katalogiga bevosita ulanib, o'zlariga kerakli adabiyotga buyurtma berishlari va bakalavriat ta'limi yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida o'qitiladigan 500 ortiq fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlarning elektron shaklini ya'ni to'liq matnli shaklini yuklab olish imkoniga ega bo'ladilar buning uchun fanning nomi yozilsa shu fanga oid adabiyotlarning ro'yxati va to'liq matnini ko'rish va yuklab olish imkoniga ega bo'ladilar. Chunki Axborot resurs markazida zamonaviy skannerlar mavjud. Institut veb-saytida "Elektron kutubxona" tarmog'i mavjud. Bu saytga <https://tsuos.uz/axborot-resurs-markazi/> nomi bilan kirish mumkin. Bu bo'limdan foydalanuvchilar ARM fondida mavjud yangi elektron o'quv-adabiyotlar bilan ham tanishish imkoniyatiga ega. Doktorant va magistratlar xalqaro ilmiy bazalardan foydalanishadi. Scopus, Web of science, EBSCO kabi xalqaro ilmiy resurslar bazalaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida ARM bazasida innovatsiya markazi tomonidan seminarlar tashkil etilgan.

Yangi texnologiyalar asosida kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, yangicha ish yuritishning samaralarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- 3 ta asosiy kutubxona muammosining hal bo'lishida: nashrning kam nusxasi, fondni saqlashda joyning yetishmasligi, kitob fondining saqlanishi;
- kutubxona iste'molchilari so'rovlarining tularoq qondirilishi;
- an'anaviy bo'lmagan tashuvchilarda axborot berish orqali kutubxona ishining qimmatini ortadi, kutubxonaning yangi imidji yaratiladi;

Multimedia kompyuterlarida SD – ROMga yozilgan matnli, audio va video axborotlar kerakli materialni yaxshiroq o'zlashtirilishiga, ya'ni bir vaqtning o'zida kishining bir necha sezgi organlariga ta'sir etishi orqali axborotning kompleks xolda qabul qilinishiga erishiladi. Bu esa juda kata ahamiyatga ega, chunki yuqori axborot madaniyatiga ega bo'lgan kishi doimo o'zgarib boruvchi dunyoga osonroq moslashadi va bu o'zgarishlardan qurqmaydi.

Mediateka faqat axborot emas, balki madaniy – ma'rifiy va ta'lim berish funksiyasini ham bajaradi, jumladan, kompyuter savodxonligini o'stirishga yordam beradi, estetik tarbiya berish vazifasini ham bajaradi.

Yuqorida aytib o'tilgan tadbirlarning kutubxonalarda bajarilishi iste'molchilar auditoriyasining o'zgarishiga hamda xizmat ko'rsatish sistemasining yaxshilanishiga olib keladi. O'quv zallarida raqamlangan hujjatlarni ko'rish, boshqa kutubxonalar fondiga kirish imkonini beradi.

Kutubxonalararo aloqa orkali hujjatning asl nusxasi emas, balki kaytarish zarur bo'lmagan nusxalarni jo'natish ishlari rivojlanadi.

Kelajak kutubxona – axborot xizmati tizimi uzokdagi iste'molchilarga kutubxonaning axborot resurslariga maksimal kirish imkonini berishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 iyundagi «O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmatlarini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi PQ-4354-sonli Qarori.
2. Rahmatullayev M.A., Umarov A.O., Karimov U.F. Muxamadiyev A.M. Avtomatlashtirilgan kutubxona. 2003 yil
3. U.F. Karimov, M.A. Raxmatullayev Elektron kutubxona (yaratish texnologiyasi va resurslardan foydalanish) Toshkent 2010 yil
4. Axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari ishini tashkil qilish. Toshkent 2007 yil

TARIXIY ARXIV HUJJATLARINING YOZUV TURI, ULARNING TILLARI HAMDA PALEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

DOI 10.82111/CAC2025/027

Mirzaev Nasriddin Muxritdinovich, O'zbekiston Milliy arxivi katta ilmiy xodimi, t.f.f.d. (PhD)

Maqolada tarixiy arxiv hujjatlarining yozuv turi, ularning tillari hamda paleografik xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. Xususan, O'zbekiston Milliy arxivida mingga yaqin tarixiy fondlarning hujjatlari yozilgan xat turlari, hujjatlar yuritilgan tili haqida ma'lumotlar tahlil qilingan. Tarixiy arxiv hujjatlarining turlixilligiga mil bo'lgan sabab va hodisalarning ahamiyati va o'rnining hujjatshunoslikdagi mavqei bevosita diqqat markaziga olingan. Shuningdek, tarixiy arxiv hujjatlarining tadqiqor metodologiyasi xususida ham ilmiy nazariy masalalarga to'xtab o'tilgan.

Kalit so'zlar: arxiv hujjati, arxivshunoslik, chet tillari, yozuv turi, paleografiya, manbashunos va matnshunoslik.

THE SCRIPT TYPES, LANGUAGES, AND PALEOGRAPHIC CHARACTERISTICS OF HISTORICAL ARCHIVAL DOCUMENTS

Mirzaev Nasriddin Mukhriddinovich, Senior researcher at the National Archive of Uzbekistan Ph.D.

The article discusses the script types, languages, and paleographic characteristics of historical archival documents. In particular, it analyzes the script types and languages used in the documents of nearly a thousand historical collections stored in the National Archive of Uzbekistan. The study highlights the significance and role of various factors and events that contributed to the diversity of historical archival documents and their place in document studies. Additionally, the article addresses theoretical and methodological issues related to the research of historical archival documents.

Keywords: archival document, archival studies, foreign languages, script type, paleography, source studies, textual studies.

Qit'aminizning benazir va tarixiy hujjatlarga boy xazinalaridan bo'lgan O'zbekiston Milliy arxivida mingga yaqin tarixiy fondlar saqlanadi. Ushbu fondlarning tarkibiy tuzilishi va kelib chiqish hamda jamlanish mazmuniga ko'ra hujjatlarning yozuv turlari, ularning tillari hamda paleografik xususiyatlari ham turfa xilligi bilan ajralib turadi. Zero, Markaziy Osiyo azaldan turli millat va elatlar yashab kelayotgan ko'pmillatli o'lkalar sirasiga kiradi, shu jihatdan ham tarixdan bu yerdagi hayot va siyosiy hamda ijtimoiy jarayonlar turli tuman bo'lishi bilan izohlanadi. Xususan, bu o'lkaga egalik qilishga intilgan turli bosqinchi davlatlarning urish ochib kirib kelgani, muayyan muddatlar bu joyda o'zlarining boshqaruv va begona siyosatlarini o'rnatishlar natijasida hosil bo'lgan rasmiy hujjatlar, devonxona ishlarini o'zida aks etgan materiallar, hukumat va aholi o'rtasidagi o'zaro aloqalari natijasida shakllangan vasiqalar, fuqarolarning o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy aloqalari natijasida tuzilgan qarz-qavola hamda bitimlarga doir hujjatlar hamda xalqaro aloqalarning jadalligi bilan bog'liq diplomatik hujjatlarning xususiyatlari, yozuv turlari yoxud tillarining xilma-xilligi bu tabiiy hodisa va jarayon hisoblanadi.

Birgina O'zbekiston Milliy arxivida saqlanotgan tarixiy hujjatlarning hozircha aniqlangan 18 ta tilda yozilgani va 6 xil yozuv turiga mansubligini qayd etish mavzuning dolzarbligini oydinlashtiradi.

O'zbekiston Milliy arxivida saqlanotgan tarixiy fondlarning tarkibida joylashgan hujjatlarning turli tillarga bo'linishi quyidagi sabab va xususiyatlar nuqtai nazardan o'rganilsa tarixiy hujjatlarning ahamiyati yanada oshadi:

- **arxeografik** jihatdan – qadim yozma yodgorliklarning qayta ishlash usullari va e'lon qilishning nazariy masalalari haqidagi tarixiy-filologik fani yuzasidan izlanishlar olib borish. Bu sohadagi ishlar mintqa madaniyatimizga doir yozma manbalarni alohida va o'ziga xos tarzda o'rganish, bu xildagi yondashuv uzoq tarixlarga borib taqaiishi fanda ma'lumdir;

- **paleografik** jihatdan – qadimiy yozma yodgorliklarning yozilish o'rni, vaqti va kotiblari kabilarni aniqlash uchun uning tashqi belgilarini, yozuvini o'rganuvchi tarixiy-filologik fan bo'lib, buning uchun qo'lyozma va hujjatlarning materiali, harf shakllari, bezak va boshqa xususiyatlari sinchiklab o'rganiladi. Alohida nom bilan atalmagani holda kitobat ishlari jumlasida mavjud bo'lib kelgan;

- **arxivshunoslik** jihatdan – hujjatlarni jamlash, ularning hisobini yuritish, saqlash va ulardan foydalanish usullarini ishlab chiquvchi, arxivlar ishini tashkil etishni, ularning tarixini o'rganuvchi fandir. Bu soha mutaxassislari Milliy arxivlar, Respublika Davlat arxivlari, viloyat va tuman arxivlarida faoliyat ko'rsatadilar. Adabiy arxiv hujjatlarni respublikamiz qo'lyozma fondlarida va adabiyot muzeyi hamda barcha turdagi muzeylarda joylashgan saqlovxonalarda uchratish mumkin. Tarixiy arxiv hujjatlari ana mazkur tashkilot va muassasalarda saqlanuvchi noyob manbalar turiga kiradi⁸⁸.

Mingtaga yaqin tarixiy davr (IX-XX asr boshi, 1920-yilgacha)ni o'z ichiga olgan fondlar ichidan 150 ga yaqini asosan arab alifbosida yozilgan hujjatlardan tashkil topgan. Ushbu arab alifbosida yozilgan fond hujjatlarining tili esa arab, fors-tojik va eski o'zbek (chig'atoy) tiliga mansubdir. Bular yozilgan yoki tuzilgan hududlar esa Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari hamda 19-asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan, so'ng yangi Turkiston o'lkasi bilan atalgan hududning 3 ta viloyati (Samarqand, Farg'ona va Sirdaryo) hamda Toshkent shahar va Toshkent uyezdi hududlarida faoliyat olib borgan qozilarning fondlaridan tashkil topgan fond hujjarlaridir⁸⁹.

Arxivdagi qozilar fondlarining hajm jihatidan eng katta qismi Samarqand viloyati qozilariga (deyarli 50%) tegishli hujjatlar bo'lib, undan so'ng Sirdaryo va Farg'ona viloyatlari turadi. Bular yakka tartibda faoliyat yuritgan qozilar hamda qozilar s'ezdlarining arxiv hujjatlaridir. Sirdaryo va Farg'ona viloyatida ish yuritish eski o'zbek (chig'atoy) tilida olib borilgan bo'lsa, Samarqand viloyati qozilarining aksariyati esa hujjatlarni fors tilida rasmiylashtirgan. O'rta Osiyo xonliklari Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olgunga qadar hujjatlar fors tilida yuritilgan bo'lib, ularni maxsus ta'lim olgan qozilar rasmiylashtirgan. Mustamlaka davrida xalq qozisi lavozimiga saylash tartibi kiritilishi bilan birga qozixona hujjatlarini mahalliy aholi tilida yuritish belgilab qo'yilgan edi. Buning natijasida qozilik lavozimiga fors tilini bilmagan shaxslar ham saylanishi mumkin bo'lgan.

XIX asrda Markaziy Osiyo xalqlari tarixida ro'y bergan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va madaniy jarayonlar jamiyat hayotiga oid tarixiy hujjatlar va ma'lumotlarni aks ettiruvchi manbalar turining yanada boyishiga olib keldi. Yozma manbalar turi kengayib, toshbosma kitoblar, davriy matbuot, arxiv hujjatlari, kartografik tasvirlar, qayd daftarlari kabi yangi hujjatlar turkumi yaratildi, bu esa, o'z navbatida, mintqa ijtimoiy tarixini yanada chuqur va keng tadqiq etish imkoniyatini yaratdi.

Aynan shu davrga kelib, tarixiy izlanishlar olib borish ishtiyoqida bo'lgan tadqiqotchilar ommaviy kutubxonalar, muzeylar va davlat arxivlari kabi muassasalarni ochish va ularni manbalar bilan boyitish yo'lida xizmat qildilar. Bugungi kunda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot

⁸⁸ Habibullayev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. – Toshkent: Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti, 2000. – B. 22-23.

⁸⁹ O'zbekiston Milli arxivi: I-125-fond (Xiva xonlari arxiv hujjatlari kanselyariyasi), I-126-fond (Buxoro qo'shbegisi arxiv fondi), I-323-fond (Vaqf hujjatlari kolleksiyasi) va I-1043-fond (Qo'qon xonligi arxiv hujjatlari) hujjatlari.

muzeyi, O'zbekiston Milliy kutubxonasi, O'zbekiston Milliy arxivi va O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasi kabi respublikadagi yirik ilmiy maskanlarda, balki viloyat muzey, kutubxona, arxiv va boshqa fondlarda XIX – XX asr boshi tarixini aks ettiruvchi bebaho manbalar mujassamlashgan.

Tarixiy manba turlarining ko'payib borishi bilan manbashunoslik yo'nalishlari ham kengayib, XX asrning 30-yillaridan Markaziy Osiyo tarixini yorituvchi sharq tillaridagi manbalar va arxiv hujjatlarini o'rganish masalasi ko'tarildi. Arab imlosidagi arxiv hujjatlarining ochilishi bilan yangi mahalliy manbalarni o'rganish faollashdi. Qozilik hujjatlarini tadqiq etishni M.Izakson⁹⁰ va I.Pervishev⁹¹ lar boshlab berdilar. Jumladan, M.Izakson 1930 yilda Toshkent Markaziy tarix arxivi (hozirda O'zbekiston Milliy arxivi) saqloviga qabul qilingan qozilik hujjatlarining to'liq tavsifini berish bilan birga, tadqiqotchilarni ulardan foydalanishga chaqirgan. I.Pervishev esa mahalliy tilda yozilgan hujjatlarni o'rganish masalasini ko'targan. 1937 yilda taraqqiyparvar A.Fitrat rus olimi B.Sergeyev bilan hammualliflikda XVI asrga oid Samarqand qozikaloniga tegishli 735 ta qozilik hujjatlarini aniqlab, ilk bor hujjatlar to'plamini nashr etganlar⁹². Mazkur holat islom qonunchiligi talablari asosida yaratilgan qozilik hujjatlarini ilmiy muomalaga kiritish jarayonini bir oz jadallashtirdi. Qozixonalarda rasmiylashtirilgan "vasiqa" turidagi notarial hujjatlar alohida to'plam yoki katalog shaklidagi hujjatlarning birlamchi sharhlari nashr etildi⁹³.

Mazkur masalaga doir tadqiqotlarning manbaviy asoslarini baholasak, ularda keltirilgan asosiy materiallar quyidagi tartibda berilgan deb xulosa qilish mumkin:

- mustamlaka ma'muriyati amaldorlari tomonidan tayyorlangan hisobot va tavsiflar;
- qozilar ish yuritishining notarial mahsulotlari (fuqarolik-huquqiy munosabatlarni yorituvchi har xil turdagi hukm va dalolatno-malar – "vasiqalar");
- ayrim holatlarda, o'rta asr huquqshunosligiga doir risolalar (*shurut*).

Zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan oxirgi 20 yil ichida olib bo'rilgan izlanishlarda mahalliy qozilarning mustamlaka davrida olib borgan ish yuritishini o'rganish, xususan, qozilar rasmiylashtirgan qayd kitoblari Usmoniylar imperiyasidagi sijjilotlar kabi o'lka qonunchi-lik tarixini o'rganishda bebaho ahamiyatga ega, deb baholanadi⁹⁴.

Mustaqillik yillarida tarixiy manbalarni xolisona tadqiq etish va tarixni haqqoniy baholash davr taqozosiga aylanishi bilan qozilik hujjatlari manbashunosligida yangicha yondashuvlar shakllandi, bu yo'nalishda ilk yangi tadqiqotlar yuzaga keldi va hujjatlar nashri yo'lga qo'yildi.

Umuman olganda, yuqorida qayd etilgan akademik nashrlar tarixiy arxiv hujjatlarini, qozilik hujjatlarini manbashunosligi rivojlanib kelayotgan va yangi tadqiqotlarga mavzu bo'la oladigan istiqbolli yo'nalish ekanligini ko'rsatmoqda. Bunday tadqiqotlar tarixiy hujjatlarni mazmunan tahlil etish, tizimlashtirish, turli jamg'armalardagi hujjatlar monitoringini yaratish, o'zaro qiyoslash orqali yangi ma'lumotlarni aniqlash, ularning manbaviy ahamiyatini taqqoslash va shu orqali islomshunoslik, manbashunoslik va tarix fanlarini yanada rivojlantirish imkonini beradi.

Tarixiy arxiv hujjatlarini o'rganishda quyidagi tartibdagi nazariy masalalarni bayon etish mumkin:

- 1) hujjatlarni tasniflash tamoyillarini belgilashda Sharq va Musulmon ish yuritish xususiyatlarini asosiy o'ringa qo'yish;
- 2) hujjat obyekti muammolarini belgilab chiqish;
- 3) hujjatlarni o'rganish masalalarini o'rta tashlashda o'lka tarixiy jarayonlarning tadrijiy o'zgarishlari diqqatdan chetga chiqmasligi;
- 4) tahlil qilish uchun hujjatlarni tanlab olish tamoyillarini belgilash;
- 5) hujjat formulyasi tahlili;
- 6) hujjatlarning amaliy tahlili.

Nazariy manbashunoslikda tadqiqotlar asosini tashkil etuvchi turli xil manbalarni tanqidiy tahlil etishda tarixiy voqealarning aks etishi, hujjatlarni tuzishdan ko'zlangan maqsad, uning yaratilish tarixi, muallifning ma'lumotlarni yoritishdagi subyektiv qarashlarini aniqlash muhim sanaladi.

Shu o'rinda Buxoro amirligi tarixiy hujjatlarini o'rganish, ularni nashr etish bo'yicha tajribali mutaxassis B.Kazakov tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlarni alohida qayd etish joiz. Muallif o'z ishida shaxslarga tegishli yuridik hujjatlarni ijtimoiy funksiyasiga ko'ra, 8 ta turga ajratadi: 1) vasiqai bayi bot (oldi-sotdi hujjati); 2) xatti ijara; 3) vasiqai baxshish; 4) vasiqai bayi joiz; 5) xatti nikoh; 6) vaqfnoma; 7) vasiyatnoma; 8) xatti ibro kabi. Muallif har bir hujjatning tarkibiy tuzilishi, tarixi va maqsadini aniqlash borasida nazariy usullarni bayon etgan⁹⁵.

Ayrim hollarda tarixiy arxiv hujjatlaridagi yozilgan vaqtini, shuningdek, qozining ismi sharifini birdan aniqlab bo'lmaydi. Odatda hujjatning so'nggi qismidagi uning sanasi va qozi ismi qayd etiladi. Bunday ma'lumotlar

90 Изаксон М. Национальные фонды Центрального архива УзССР в Ташкенте. // Библиография Востока. – Ленинград, 1932. – №1. – С. 55-72.

91 Первышев И. О документальной базе для историографии феодальной формации в Средней Азии. // Революция и культура в Средней Азии. Сборник первый. – Ташкент, 1934. – С.106-111.

92 Фитрат Р. Р., Сергеев Б. Казийские документы XVI века. Ташкент: Комитет науки УзССР, 1937. – С. 80.

93 Ивалиев П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. Исследование и описание документов с историческим введением. – JL, 1940; Унинг ўзи. Хозяйство джуйбарских шейхов. / К истории феодального земледелия в Средней Азии в XVI – XVII вв. – М. - JL, 1954; Чехович О.Д. Бухарские документы XIV в. – Ташкент, 1965; Унинг ўзи. Самаркандские документы XV-XVI вв. – М., 1974; Документы архива хивинских ханов по истории и этнографии каракалпаков. / Подбор документов, введение, перевод, примечания и указатели Ю.Э. Брегеля. – М.: Наука, 1967; Троицкая А.Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. – М.: Наука, 1968.

94 Sartori P. Colonial Legislation Meets Shari'at: Muslims' Land Rights in Russian Turkestan // CAS 29/1, 2010. – P. 43-60; Унинг ўзи. Constructing Colonial Legality in Russian Central Asia: On Guardianship // CSSH 56/2, 2014. – P. 419-47.

95 Казиков Б.А. Документальные памятники Средней Азии. – Ташкент: Узбекистан, 1987. – С.25.

keltirilmagan qozilik hujjatiga doir ayrim fikr, masalan, yozilgan sanasi, joyi, uning qog'ozi, xati (yozuv turi), til uslubiga hamda muhrlarga qarab belgilanadi. Hujjat muallifi va undagi voqea ishtirokchilarining shaxsini aniqlash manbani ilmiy tahlil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda hujjatning yaratilish tarixi va uning yozilishiga sabab bo'lgan ijtimoiy-siyosiy muhitni aniqlab olish zarur.

Arab alifbosidan tashqari qisman ozchilikni tashkil etuvchi tarixiy arxiv hujjatlar kirilcha, lotincha, xitoycha, uyg'urcha va yaponcha yozuv turiga mansubdir.

Ushbu yozuv turidagi hujjat tillariga quyidagilar kiradi: rus, ibriy (yahudiy), ingliz, mo'g'ul (mongol), nemis, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, turk (usmonli), uyg'ur, xitoy, fors, fransuz, hind va yapon tili.

Ushbu turdagi tarixiy hujjatlar tilining turliligining kelib chiqish xususiyatlari ayan 19-asrning ikkinchi yarmiga kelib Rossiya imperiyasining o'lkani bosib olish bilan baholanadi. Zero, bosib olingan hudud fuqarolarining xorijga chiqishi yoki xorijdan bu hududga kirishi cheklanish va maxsus ruxsat bilan amalga oshishi natijasida pasport tizimi joriy qilingan va ana shu siyosiy o'zgarish natijasida hujjatlar tilidagi xilma-xillik yuzaga chiqqan. Shu sababdan ham Milliy arxivda saqlanayotgan tarixiy hujjatlar ichidan pasport tizimiga doir hujjatlar o'rganilga bu kabi tillarni uchratish ko'p yuzaga keladi.

Jumladan, 1870-1917-yillar mobaynida Turkiston general gubernatori kanselyariyasi yoki viloyatlar boshqarmalariga murojaat qilgan AQSH, Avstriya, Germaniya, Finlandiya, Fransiya, Polsha (Varshava), Shvetsariya, Turkiya, Eron, Xitoy, Hindiston kabi fuqarolarining yozishmalariga doir hujjatlar ayni tarixiy arxiv hujjatlar orasida turli yozuv va turli tillarda yozilgani bilan arxiv ishi sohasi yoxud o'lkaning tarixini yorituvchi tadqiqotchilar uchun alohida qimmatli hujjatlar va manba bo'lib xizmat qiladi⁹⁶.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda tarixiy arxiv hujjatlari manbashunosligi tadqiqotlarning nisbatan yangi va yosh yo'nalish bo'lib, uni rivojlantirish borasida katta imkoniyatlar mavjud. Shu bilan birga, bir qator ilmiy vazifalar o'z yechimini kutmoqda. Bu hujjatlarning turli fanlararo qiyosiy tahlil etilishi nafaqat arxiv ishi sohasi rivoji uchun, balki O'zbekiston tarixini o'rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati

1. Habibullayev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. – Toshkent: Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti, 2000. – B. 22-23.
2. O'zbekiston Milli arxivi: I-125-fond (Xiva xonlari arxiv hujjatlari kanselyariyasi), I-126-fond (Buxoro qo'shbegisi arxiv fondi), I-323-fond (Vaqf hujjatlari kolleksiyasi) va I-1043-fond (Qo'qon xonligi arxiv hujjatlari) hujjatlar.
3. Изаксон М. Национальные фонды Центрального архива УзССР в Ташкенте. // Библиография Востока. – Ленинград. 1932. – №1. – С. 55-72.
4. Первышев И. О документальной базе для историографии феодальной формации в Средней Азии. // Революция и культура в Средней Азии. Сборник первый. – Ташкент, 1934. – С.106-111.
5. Фитрат Р. Р., Сергеев Б. Казийские документы XVI века. Ташкент: Комитет науки УзССР, 1937. – С. 80.
6. Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. Исследование и описание документов с историческим введением. – Л., 1940; Унинг ўзи. Хозяйство джуйбарских шейхов. / К истории феодального земледелия в Средней Азии в XVI – XVII вв. – М. - Л., 1954; Чехович О.Д. Бухарские документы XIV в. – Ташкент, 1965; Унинг ўзи. Самаркандские документы XV-XVI вв. – М., 1974; Документы архива хивинских ханов по истории и этно-графии каракалпаков. / Подбор документов, введение, перевод, примечания и указатели Ю.Э. Брегеля. – М.: Наука, 1967; Троицкая А.Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. – М.: Наука, 1968.
7. Sartori P. Colonial Legislation Meets Shar' a: Muslims' Land Rights in Russian Turkestan // CAS 29/1, 2010. – P. 43-60; Унинг ўзи. Constructing Colonial Legality in Russian Central Asia: On Guardianship // CSSH 56/2, 2014. – P. 419-47.
8. Казаков Б.А. Документальные памятники Средней Азии. – Ташкент: Узбекистан, 1987. – С.25.
9. Qarang: O'zbekiston Milli arxivi: I-1-fond, 22-ro'yxat, 396-yig'majild, 4-ro'uxa, 17009-1710-yig'majild, 27-ro'yxat, 85-yig'majild; I-17-fond, 1-ro'yxat, 163-, 223-, 397-, 1062-, 1088-yig'majild; I-22-fond, 1-ro'yxat, 493-, 1089-yig'majild; I-36-fond, 1-ro'yxat, 2343-, 2719-, 3012-, 2550-, 2907-, 3432-3433-yig'majild; I-907-fond, 1-ro'yxat, 340-, 394-yig'majild.

КНИГА – ФУНДАМЕНТ ДУХОВНОСТИ ЧЕЛОВЕКА

DOI 10.82111/CAC2025/028

Муллажоновна Наргиза, Начальник Информационно-ресурсного центра Министерства внутренних дел Республики Узбекистан

В данной статье речь идёт о необходимости прививать нашим гражданам культуру чтения. Культура чтения – очень широкое понятие, которое означает интерес к книге и любовь к ней, знакомство с литературой, особые познания книги и работа с ней, использование книги в полной мере. Всё это благоприятно отразится на

⁹⁶ Qarang: O'zbekiston Milli arxivi: I-1-fond, 22-ro'yxat, 396-yig'majild, 4-ro'uxa, 17009-1710-yig'majild, 27-ro'yxat, 85-yig'majild; I-17-fond, 1-ro'yxat, 163-, 223-, 397-, 1062-, 1088-yig'majild; I-22-fond, 1-ro'yxat, 493-, 1089-yig'majild; I-36-fond, 1-ro'yxat, 2343-, 2719-, 3012-, 2550-, 2907-, 3432-3433-yig'majild; I-907-fond, 1-ro'yxat, 340-, 394-yig'majild.